



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 66 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili.....	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку.....	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INNOVATSION VA TA'LIM EKOTIZIMIDAGI ROLI

Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi

University business and science (Toshkent filiali) (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida innovatsion ta'lim faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni integratsiya qilishning yangi usullarini joriy etish, zamonaviy biznes yondashuvlari va tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayoniga "Tadbirkorlik asoslari" fanini kiritishning muhimligi asoslab berilgan. Mazkur fan talabalarning o'zaro muloqoti va amaliy ta'limini rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash, grantlar va tanlovlarda ishtirok etish hamda zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida biznes loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga yo'naltirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: oliy o'quv yurti, talaba, ta'lim, tadbirkorlik, tadbirkorlik asoslari, innovatsiyalar, akseleratsiya dasturi, ta'lim ekotizimi, bitiruv malakaviy ishi.

Abstract: This article examines the development of innovative educational activities in higher education institutions through the implementation of new methods of knowledge integration, as well as the formation of modern business approaches and entrepreneurial competencies. It also substantiates the importance of incorporating the course "Fundamentals of Entrepreneurship" into the educational process. The study emphasizes that this course promotes student engagement and practice-oriented learning, supports the development of individualized personal growth trajectories, enhances entrepreneurial competencies, contributes to the preparation of graduation qualification projects (theses), encourages participation in grants and competitions, and guides students in designing and implementing business projects based on modern innovative approaches.

Key words: higher education institution, student, education, entrepreneurship, fundamentals of entrepreneurship, innovation, acceleration program, educational ecosystem, graduation qualification project (thesis).

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития инновационной образовательной деятельности в высших учебных заведениях посредством внедрения новых методов интеграции знаний, а также формирования современных бизнес-подходов и предпринимательских компетенций. Кроме того, обосновывается важность включения дисциплины "Основы предпринимательства" в образовательный процесс. Отмечается, что данная дисциплина способствует развитию взаимодействия студентов и практико-ориентированного обучения, формированию индивидуальной траектории личностного развития, развитию предпринимательских компетенций, подготовке выпускных квалификационных работ, участию в грантах и конкурсах, а также ориентирует студентов на разработку и реализацию бизнес-проектов на основе современных инновационных подходов.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, студент, образование, предпринимательство, основы предпринимательства, инновации, программа акселерации, образовательная экосистема, выпускная квалификационная работа.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son¹ Farmonida yoshlarning sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, zamonaviy mehnat bozorida munosib o'rin topishiga ko'maklashish hamda ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash, ularda vatanparvarlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat tuyg'ularini mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan ^[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son² qarorida yoshlarning tadbirkorlik g'oyalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-8155028>

² <https://lex.uz/docs/-7387025>



ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan ^[2].

Shu bilan birga, 2026-2027-o'quv yilidan boshlab barcha oliy ta'lim muassasalarida "Tadbirkorlik asoslari" fanini o'qitish yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda. Bu orqali talabalarda biznes ko'nikmalarini shakllantirish va ularni tadbirkorlik uchun mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamiz olimlari N. Muslimov, M. Inomova, V. Karimova, N. Murodova, O. Musurmonova, B. Abdulayeva, Q. Muftaydinov, A. Muxsiyeva, N. Nagmetova, D. Raxmatullayeva, Yu. Maxmudov, F. Xidirova, B. Xodjayev, M. Artiqova, A. Xudoyqulov, Z. Xudoyberdiyev, J. O. Tolipova, U. Raxmatov, N. Karimova, G. Shodiyeva, Sh. Quvondiqov, M. Quronov, O. Hayitov, R. Hakimov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari, monografiya hamda o'quv qo'llanmalarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ma'lumotlar berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari V. Maksimov, Ye. Arnautova, A. Bartenev, A. Karpov, Ye. Klimova, I. Kondratenko, A. Umayev, Ye. Manchuk, V. Grebneva, A. Miller, M. Nikulayeva, V. Petrishev, V. Chesnakov, S. Savinova, A. Shilkina, R. Stulov, A. Shukayeva, Ebrayimi Tagizadex Xosro Moradali va boshqalar tomonidan maktab va oila hamkorligi asosida o'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini o'rganish, ularning iqtisodiy ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda voyaga yetmaganlarda ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish bo'yicha pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Xorijlik olimlar M. John, R. Kreitner, R. Sarah, S. Moscovisi, M. Rokeach, J. Sey, N. Davies, A. Gibb va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tadbirkorlik psixologiyasi, tadbirkorlik faoliyati hamda tadbirkorlik ta'limini tashkil etish usullari yoritilgan ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash, spin-off korxonalarga yoshlarni jalb qilish hamda bitiruv malakaviy ishlari himoyasini ish beruvchi tashkilotlarda o'tkazish amaliyotini kengaytirish choralari nazarda tutilmoqda. Bunday yangi yondashuvlar sharoitida davlatning ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarini hal etishda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash choralari shakllantirilmoqda. Bu choralar innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, yangi yechimlar hamda mahsulotlarni yaratishga qaratilgan.

Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashning ahamiyati dolzarb muammolarni hal etish, maqsadli auditoriya ehtiyojlariga javob beradigan yangi yechimlarni ishlab chiqish bilan belgilanadi. Yoshlar tadbirkorligining ulushi yil sayin ortib bormoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror faoliyat yurituvchi iqtisodiyotni shakllantirish, ya'ni barqaror tadbirkorlik tizimlariga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish va mustahkamlash mamlakat hamda hududlar iqtisodiyotining kelgusida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shartlardan biridir. Shuningdek, bu ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirish, rivojlanish hamda transformatsiya jarayonlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy-ta'lim salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali innovatsion ekotizimni shakllantirish maqsadida universitetlarda tadbirkorlik faoliyati kurslarini tashkil etish o'ziga xos mexanizm hisoblanadi. U muloqot va ta'lim jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda shaxsiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida bitiruv malakaviy ishlari, grantlar va turli tanlovlarni uchun loyihalarni tayyorlashda ko'maklashadi ^[4]. "Tadbirkorlik asoslari" fanini oliy ta'lim muassasalariga kiritish hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tadbirkorlik tafakkurini shakllantirish, shaxsning o'zini o'zi tashkil etish va rivojlantirish ko'nikmalari, kognitiv moslashuvchanlik hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa talabalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuv sifatida bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash va himoya qilish jarayonida "Startap – diplom sifatida" dasturini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ushbu dastur startap loyihalarini boshlang'ich bosqichda ishlab chiqish va amalga oshirishdan tortib, ularni to'laqonli biznes loyihalariga aylantirishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Tadbirkorlik kurslarining asosiy vazifasi bitiruvchi mutaxassislarni bozorda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha kompetensiyalar bilan ta'minlash, universitetda berilayotgan bilimlar va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirishdan iborat. Natijada innovatsiyalar asosida o'z biznesini tashkil etadigan yosh tadbirkorlar sonining ortishi kutilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida innovatsion muhit rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi ^[5].

"Tadbirkorlik asoslari" fanining innovatsion rivojlanish sohasidagi asosiy maqsadi talabalarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularni o'z innovatsion yechimlarini amalga oshirish uchun shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishga rag'batlantirishdan iborat. Bu startaplar yaratish yoki grantlarni qo'lga kiritish uchun loyiha arizalarini tayyorlash orqali amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish markazlarining shakllanishi yoshlarning o'z hududlarida qolishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ularning tug'ilib-o'sgan hududlarida istiqomat qilishi, biznes yuritishi hamda tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida universitetni rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishidagi dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar ta'lim faoliyati sohasida qator innovatsion loyihalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tadbirkorlikning "Qaynash nuqtasi" bugungi kunda zamonaviy universitetlarning tadbirkorlik ekotizimining muhim elementi hisoblanadi. U universitet texnologik tadbirkorligi makoni bo'lib, talabalarda tadbirkorlik qobiliyati va tashabbuskorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining texnologik yetakchiligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Zamonaviy ta'lim muhitida ta'lim va ilmiy-amaliy dasturlarni joriy etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati kurslarini tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan. Bu, o'z navbatida, yirik tadbirkorlar bilan uchrashuvlar, biznes-forumlar, ma'ruzalar, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishni talab etadi. Mazkur tadbirlar zamonaviy tendensiyalar, moliyaviy savodxonlik hamda biologiya fanlarini o'qitish jarayonida tadbirkorlikka oid bilimlarni berish orqali talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Talabalarning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida ta'limiy tadbirkorlik tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu innovatsion ta'lim muassasalarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, yagona ta'lim makonini yaratish hamda akademik mobillikni rivojlantirish zarurati bilan bog'liq.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy yo'nalishlari muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilish, yoshlarni texnologik tadbirkorlikka keng jalb etish bo'yicha metodikalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bilan bog'liq. Bu yangi natijalarga erishish uchun muhim omil bo'lib, universitetlar o'zaro hamkorlikda ishlanmalarni bozorga olib chiqish, investitsiyaviy salohiyatni oshirish hamda investitsiyaviy va intellektual jozibadorlikni kuchaytirishga intiladi. Zamonaviy tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazish va yirik tadbirkorlar bilan hamkorlikda davra suhbatlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, boshqa universitetlarning tadbirkorlik loyihalarida ishtirok etish ham zarurdir. Ushbu loyihalar talabalarni texnologik tadbirkorlikka ommaviy jalb qilish hamda O'zbekiston universitetlarida talabalar tomonidan texnologik kompaniyalar tashkil etishga qaratilgan. Kelgusida tadbirkorlik loyihalari ishtirokchilari o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirish, kompetensiyalarni oshirish va ilmiy nashrlar faolligini kengaytirish maqsadida moddiy hamda intellektual resurslarni birlashtiradilar.

Tadbirkorlik kurslari universitetning barcha fakultetlari bilan hamkorlikda startaplar va biznes loyihalarni tayyorlash, ilmiy-ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish, mahorat darslarini tashkil etish, biznes hamjamiyati va ekspertlar bilan uchrashuvlar o'tkazish hamda startaplarni sinovdan o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayonida talabalar akseleratsiya dasturlari, networking, xakaton, trening, treking va boshqa formatlarda ishtirok etish orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantiradilar.

Talabalar o'z kompetensiyalarini oshirish, yangi bilimlarni egallash, biznes hamjamiyatining bir qismiga aylanish, tajribali mentorlar va tadbirkorlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular forumlar, qurultoylar, festivallar va grant tanlovlarida ishtirok etishlari mumkin. Tadbirkorlik kurslarini tashkil etishning asosiy maqsadi yoshlarning tadbirkorlik loyihalari doirasida innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish, biznesni yo'lga qo'yishning barcha bosqichlaridan xavfsiz hamda tez o'tish imkonini beruvchi yangi vosita va texnologiyalarni shakllantirishdan iborat.

XULOSA

Bozor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nafaqat talabalarning tadbirkorlik faoliyatiga moslashish jarayonini tezlashtiradi va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi, balki, umuman olganda, O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar salohiyatini tadbirkorlik faoliyatida ro'yobga chiqarish yoshlarning qobiliyatlarini kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy amaliyotda namoyon etish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ta'lim tayyorgarligining amaliy ahamiyati va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi PF-66-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8155028>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-7387025>
3. Mirzayeva N. I. Biologiya darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasi // Muallim ham uzliksiz bilimlendiriv. Ilmiy-metodik jurnal. – Nukus, 2023. – № 2/3. – B. 206.
4. Azimov I. T., Mirzayeva N. I. Uzluksiz ta'lim tizimida tadbirkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishning ta'lim va tarbiyaviy roli // Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali. – Toshkent, 2023. – № 2. – B. 3.
5. Ладыженская Т. П., Лабужская Т. И. Управление проектами в инновационном предпринимательстве: учебное пособие. – Москва: Ай Пи Ар Медиа, 2024. – 142 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.